

130. 10 ga va 100 ga ko'paytirish hamda bo'lish

Yondosh mavzu:
sog'lom bo'sh vaqt.

Ko'paytuvchi, yaxlit son.



1. Masalalarni taqqoslang.

a) Har bir tokchada 10 tadan kitob bor. Yettita tokchada nechta kitob bor?

b) O'quv zalining har bir qatorida 7 ta o'rin bor. Agar o'quv zalida 10 ta qator bo'lsa, jami unda nechta o'rin bor?

Yechimlarni taqqoslang: $10 \cdot 7 = 70$, $7 \cdot 10 = 70$

Nima uchun misollardagi natijalar bir xil?

Bu yerda ko'paytirishning qanday xossasini qo'llash mumkin?

2. Kuzating.

$$2 \cdot 10 = 10 \cdot 2 = 20$$

$$3 \cdot 10 = 10 \cdot 3 = 30$$

$$4 \cdot 10 = 10 \cdot 4$$

Xulosa qiling. Misollarni 9 gacha to'ldiring.

Istalgan sonni 10 ga yoki 100 ga bo'lish uchun bu sonning o'ng tomonidan bo'luvchida nechta nol bo'lsa, shuncha nolni olib tashlash kerak.

3. Namuna bo'yicha ko'paytirishni qo'shish bilan almashtiring.

Namuna: $100 \cdot 3 = 100 + 100 + 100 = 300$

$$2 \cdot 100$$

$$3 \cdot 100$$

$$100 \cdot 4$$

$$100 \cdot 5$$

130. 10 ga va 100 ga ko'paytirish hamda bo'lish



4. Namuna bo'yicha o'zaro teskari misollar tuzing.

Namuna:

$$5 \cdot 10 = 50$$

$$50 : 10 = 5$$

$$7 \cdot 100 = 700$$

$$700 : 100 = 7$$

$$3 \cdot 10$$

$$6 \cdot 100$$

$$10 \cdot 4$$

$$8 \cdot 100$$



5. Kutubxonaning yo'laklari poliga plitkalar yotqizildi. Bitta yo'lakka har biriga 50 tadan 10 qator plitka yotqizildi. Bitta yo'lakka nechta plitka kerak bo'lgan? 3 ta shunday yo'lakka nechta plitka kerak bo'lgan?



6. Zanjirni davom ettiring. Keyingi blokda nechta o'rin bo'ladi?


$$10 \cdot 1 = 10$$



$$10 \cdot 2 = 20$$



$$10 \cdot 3 =$$



7. Qonuniyatni aniqlang va jadvalni to'ldiring.

a	4	40	44	5	50	55	6		
$a \cdot 10$	40								
$a \cdot 100$	400								
$a + 10$	14								
$a + 100$	104								



8. Berilgan masalaga teskari masalalar tuzing va ularni yeching. Musobaqa o'tkazish uchun velosipedchilar har bir velosiped yo'lakchasiga 10 kishidan qilib guruhlarga bo'linishdi. Musobaqada uchta yo'lakchada necha nafar velosipedchi ishtirok etgan?

Yondosh mavzu:

jismoniy tarbiya – mening sevimli darsim.

Ko'paytuvchi, yaxlit son.



1. Maktab estafetasida 100 ball to'plash kerak. Estafetaning har bir bosqichida 10 ball beriladi. Agar estafeta 10 bosqichdan iborat bo'lsa, shuncha ball to'plash mumkinmi? Agar jamoa birinchi bosqichda 8 ball, ikkinchi bosqichda 6 ball va qolgan bosqichlarda yuqori ball olgan bo'lsa, u necha ball yo'qotgan bo'ladi?



2. Hisoblang.

$$(13 + 38) \cdot 10$$

$$(25 - 18) \cdot 10$$

$$(91 - 27) \cdot 100$$

$$(84 - 57) \cdot 100$$

$$10 \cdot (55 + 37)$$

$$100 \cdot (81 - 48)$$



3. Tenglamalarni yeching.

$$42 \cdot x = 420$$

$$y \cdot 73 = 730$$

$$z \cdot 100 = 400$$

$$8 \cdot t = 800$$

$$700 : m = 7$$

$$n : 10 = 85$$




4. Estafetada 4 ta jamoa ishtirok etmoqda. Har bir jamoa besh kishidan iborat. Estafetada jami necha kishi ishtirok etmoqda?



5. Shaxmat taxtasi kataklarga bo'lingan. Oq donalar unda dastlabki ikkita qatorni egallaydi. Qora donalar uchun ham shuncha joy ajratilgan. Shaxmat taxtasida hammasi bo'lib necha shaxmat donasi joylashgan?

Agar piyodalar soni barcha donalar sonidan ikki marta kichik bo'lsa, piyodalar jami necha?






6. "Jungli bo'ylab sayohat" stol o'yinida 100 ta o'yin yacheykasi mavjud. Har 10 yacheyka ular uchun umumiy bo'lgan rangga bo'yalgan. Jami nechta rangdan foydalanilgan?



7. Maktabga 18 ta futbol to'pi, futbol to'pidan 4 ta kam basketbol to'pi, futbol va basketbol to'plari birgalikda qancha bo'lsa, shundan 4 marta kam tennis to'pi keltirildi. To'plarning barchasi 10 ta tokchaga baravardan bo'lib qo'yildi. Har bir tokchaga nechtdan to'p qo'yilgan?



8. Hisoblang.

$$(785 - 235) : 10 + 100 \cdot 4$$

$$100 \cdot 6 - 900 : 10$$

$$(239 + 241) : 10 - 200 : 100$$

$$10 \cdot 46 + 650 : 10$$



9. Maktabda bir sport maydonchasi 250 kvadrat metr yuzga ega, ikkinchisi 10 marta kichik. Ikkita maydonchani umumiy yuzi nechga teng?